

**TURLI MENTALITETLAR TAFAKKURI: DOSTOYEVSKIY VA UMARBEKOV
ROMANLARIDA SEVGI UCHBURCHAGI, INSONIY TANLOV VA YOLG'IZLIK
FALSAFASI**

Artiqova Donoxon

*O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universiteti
Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti talabasi*

Ilmiy rahbar: Iriskulova Charos

*O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universiteti
Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti*

Xorijiy tillar kafedrası Ingliz tili o'qituvchisi

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 26.02.2026

Revised: 27.02.2026

Accepted: 28.02.2026

KALIT SO'ZLAR:

*Roman, o'zbekona
mentalitet, psixologik
realizm, sevgi
uchburchagi,
qahramonlar tafovuti,
axloqiy tanlov,
yolg'izlik, ijtimoiy
ma'suliyat, qiyosiy
tahlil*

*Mazkur maqolada Fyodor Dostoyevskiyning
"Oydin tunlar" hamda O'lmas Umarbekovning
"Odam bo'lish qiyin" romanlari qiyosiy-adabiy
jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada asarlar bosh
qahramonlari — Nastenka va xayolparast, Abdulla
va Gulchehra obrazlari misolida muhabbat, tanlov,
ichki va ijtimoiy konflikt masalalari turli
mentalitetlar ta'siri ostida o'rganiladi. Har ikki
asarda sevgi uchburchagi mavjudligi aniqlanib,
muhabbatning yakuni yozilgan davr va madaniy
muhit bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Natijada
Dostoyevskiy asarida individual-psixologik
yondashuv, Umarbekov romanida esa o'zbekona
mentalitetga xos axloqiy va ijtimoiy mas'uliyat
ustuvor ekani koriladi*

Adabiyot inson qalbining eng nozik qatlamlarini ochib berishga qodir san'atdir. Ayniqsa, ruhiy kechinmalar va muhabbat tasviri orqali yozuvchi insonni o'ziga yuzlashtiradi. Badiiy

adabiyotda muhabbat mavzusi ko‘pincha qahramonning ichki dunyosi va jamiyat bilan munosabatini ochib beruvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Turli davr va makonlarda yaratilgan bo‘lsa-da, “Oydin tunlar” (Dostoyevskiy, 2021) va “Odam bo‘lish qiyin” (Umarbekov, 2019) asarlarida bu mavzu sevgi uchburchagi orqali yoritilib, har ikki muallif mansub bo‘lgan davr va mentalitetning badiiy ifodasiga aylanadi.

Dostoyevskiyning “Oydin tunlar” asarida sevgi uchburchagi xayolparast – Nastenka – uchinchi shaxs (Nastenka kutayotgan yigit) o‘rtasida shakllanadi. Bu uchburchakda xayolparastning muhabbati sof va fidokorona bo‘lsa-da, u real hayot talablariga javob bera olmaydi. Nastenka obrazi esa romantik va bir vaqtning o‘zida yakuniy qaror qabul qiluvchi yosh qiz sifatida gavdalanadi. U muhabbatni orzu sifatida emas, g‘arb ayollariga xos jihatlaridan biri bo‘lgan hayotiy tayanch sifatida ko‘radi (Qudratova, 2024). Shu bois u xayolparastning samimiy tuyg‘ularini qadrlasa-da, tanlovda barqarorlik va aniqlikni afzal ko‘radi.

Bu holat Yevropa mentalitetiga xos individual tanlov erkinligini aks ettiradi. Dostoyevskiy asarida muhabbat yakuni fojiviy bo‘lsa-da, u dramatik emas, aksincha, ichki sokinlik bilan qabul qilinadi. Xayolparast yolg‘izlikka qaytadi, ammo bu yolg‘izlik norozilik emas, balki o‘zi yolg‘iz qolsa ham muhabbati uchun baxt tilashga kuch topa olishdir. Muhabbat bu yerda hayotni o‘zgartiruvchi kuch emas, balki inson qalbini bir lahzaga bo‘lsa-da yoritib o‘tuvchi holat sifatida tasvirlanadi.

“Odam bo‘lish qiyin” romanida esa sevgi uchburchagi Abdulla – Gulchehra – jamiyat (martaba, manfaat, obro‘ timsolida) o‘rtasida yuzaga keladi. Abdulla Gulchehrani sevadi, biroq uning tanlovi faqat shaxsiy his-tuyg‘ular bilan belgilanmaydi. Balki jamiyatda “odam bo‘lish”, ya’ni obro‘li, muvaffaqiyatli ko‘rinish zarurati sabab Sayyorani tanlashi qahramonni ichki ziddiyatga olib keladi (Muhammedova & Allamurodova, 2024).

Gulchehra obrazi o‘zbekona mentalitetga xos sabr, sadoqat va ma’naviy poklik timsolidir. U muhabbatni mas’uliyat va halollik tushunchalari bilan tasavvur qiladi. Abdulla tanlov orqali nafaqat sof sevgini, balki o‘zining insoniy qiyofasini o‘zligi oldida ham yo‘qotadi.

Muhabbat yakunidagi bu farq asarlarning yozilgan davri va mentaliteti bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Dostoyevskiy yashagan XIX asr Rossiya jamiyatida shaxsning ichki dunyosi, ruhiy iztiroblari adabiyot markaziga chiqadi. Shuning uchun muhabbat yakuni ichki kechinmalar bilan chegaralanadi. Umarbekov ijod qilgan davr va muhitda esa inson

jamiyatdan ajralgan holda tasavvur etilmaydi. O‘zbekona mentalitetda muhabbat — bu faqat his emas, balki axloqiy majburiyat sifatida qaraladi.

Qahramonlar qiyosida ham bu tafovutni ham yaqqol sezishingiz mumkin. Xayolparast o‘z muhabbatini qurbon qila oladi, chunki uning tanlovi faqat o‘ziga taalluqlidir. Abdulla esa tanlov qilarkan, boshqalar taqdiriga ham ta’sir ko‘rsatadi. Nastenka va Gulchehra obrazlari esa muhabbatga munosabatda ayol xarakterining turli madaniy makonlar ta’siri talqinlarini ko‘rsatadi: biri shaxsiy baxtni, ikkinchisi ma’naviy jihatdan kuchli bo‘lishni afzal ko‘radi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Oydin tunlar” va “Odam bo‘lish qiyin” asarlari turli mentalitetlar ta’sirida shakllangan badiiy tafakkur mahsuli bo‘lib, insoniyatning mushtarak muammosiga ikki xil nuqtai nazardan yondashadi. Biri individual ruhiy iztiroblarni, ikkinchisi esa ijtimoiy va axloqiy mas’uliyatni markazga qo‘yganliklari bilan o‘ziga xoslikni kasb etadi. Shu bois bu asarlar turli madaniy tafakkur asosida yaratilgan bo‘lsa-da, inson qalbi va tanlov muammosini chuqur yoritgani bilan qiyosiy tahlil uchun alohida ahamiyat kasb etadi (Qodirjonova, 2023).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dostoyevskiy, F. M. (2021). Oydin tunlar (R. tarjimon, Tarj.). Yangi asr avlodi. (Asl asar 1848-yilda nashr etilgan)
2. Muhammedova, M., & Allamurodova, S. (2024). O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” asarining badiiy tahlili. Zamonaviy ta’limda fan va innovatsion tadqiqotlar jurnali, 2(1), 74–78.
3. Qudratova, O‘. T. q. (2024). Feodor Dostoyevskiyning “Oydin tunlar” romanida xayolparast qahramon tavsifi. Modern Science and Research, 4(10), 542–546.
4. Qodirjonova, I. B. q. (2023). Xudoyberdi To‘xtaboyev hamda Kristofer Paul Kurtis asarlarida badiiy asar syujetining qiyosiy tahlili. Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, 45–49.
5. Umarbekov, O. (2019). Odam bo‘lish qiyin. O‘zbekiston nashriyoti. (Asl asar 1985-yilda nashr etilgan)